

**O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligida
korrupsiyaga oid huquqbuzarlik va manfaatlar to'qnashuvi haqida xabar
bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishda boshqacha tarzda
ko'maklashgan xodimlarni rag'batlantirish tartibi to'g'risidagi
NIZOM**

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida" va "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunlariga muvofiq Davlat aktivlarini boshqarish agentligi tizimida (keyingi o'rinlarda – Davlat aktivlari agentligi) korrupsiyaga oid huquqbuzarlik yoki manfaatlar to'qnashuvi haqida xabar bergan yoxud korrupsiyaga qarshi kurashishda boshqacha tarzda ko'maklashgan xodimlarni rag'batlantirish tartibini belgilaydi.

2. Ushbu Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

korrupsiya – shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish;

korrupsiyaga oid huquqbuzarlik – korrupsiya alomatlariga ega bo'lgan, sodir etilganligi uchun qonunchilikda javobgarlik nazarda tutilgan qilmish;

xodim – Davlat aktivlari agentligi tizimida mehnat shartnomasi (kontrakt) asosida yoki tayinlanadigan lavozimlarda mehnat (xizmat) faoliyatini amalga oshirayotgan jismoniy shaxs;

korrupsiyaga qarshi kurashishda faol ishtirok etish – tayyorgarlik ko'rilayotgan, sodir etilayotgan yoki sodir etilgan korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar berish yoxud yordam ko'rsatish;

korrupsiyaga qarshi kurashishda boshqacha tarzda ko'maklashish – Davlat aktivlari agentligining "Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati", "Odob-axloq qoidalari", "Manfaatlar to'nashuvini boshqarish to'g'risida nizom" kabi ichki idoraviy hujjatlar va sohaga oid qonunchilik talablari xodimlar tomonidan buzilganda, o'tkaziladigan xizmat tekshiruvida bevosita ko'maklashish;

korrupsiyaga oid ma'muriy huquqbuzarliklar – O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 61¹, 193¹, 193²-va 193⁴-moddalarida nazarda tutilgan huquqbuzarliklar;

korrupsiyaga oid jinoyatlar – O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi 167-moddasining ikkinchi qismi "g" bandi, 168-moddasining uchinchi qismi "v" bandi, 192⁹ va 192¹⁰, 205, 209 – 214-moddalari, 243-moddasida nazarda tutilgan jinoyatlarni mansab mavqeidan foydalangan holda sodir etish hamda 301-moddasida ko'rsatilgan jinoyatlar.

3. Quyidagilar korrupsiyaga oid huquqbuzarlik yoki manfaatlar to'qnashuvi haqida xabar bergan yoxud korrupsiyaga qarshi kurashishda boshqacha tarzda ko'maklashgan xodimlarni rag'batlantirishning (keyingi o'rinlarda – rag'batlantirish) asosiy vazifalari hisoblanadi:

Davlat aktivlari agentligi tizimida korrupsiyaning barcha ko'rinishlariga murosasiz munosabatni shakllantirish hamda ushbu sohada davlat siyosatining samarali amalga oshirilishini ta'minlash;

korrupsiyaga oid jinoyatlarning barvaqt profilaktikasini ta'minlash, bunga imkon berayotgan shart-sharoitlarni o'z vaqtida aniqlash va bartaraf etish;

xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashishdagi faolligini yanada oshirish hamda ularni ushbu sohaga qo'shayotgan hissasi uchun munosib taqdirlash.

4. Rag'batlantirish qonuniylik, adolatlilik, xolislik, oshkoralik, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya etish hamda ularning shaxsiy xavfsizligini ta'minlash va xohish-istaklarini hisobga olish prinsiplari asosida amalga oshiriladi.

5. Ushbu Nizom talablari qonunchilik hujjatlariga muvofiq korrupsiyaga oid jinoyatlar haqida o'ttiz sutka mobaynida o'z ixtiyori bilan arz qilgan yoki korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni bevosita sodir etgan, o'zi bilan bog'liq manfaatlar to'qnashuvi haqida xabar bergan (Mavjud manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi xabarnomani taqdim qilgan) xodimlarga nisbatan tatbiq etilmaydi.

6. Rag'batlantirish bir martalik pul mukofoti, tashakkurnoma yoki esdalik sovg'a shaklida belgilanadi.

2-bob. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik va manfaatlar to'qnashuvi haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan xodimlarni rag'batlantirish asoslari va turlari

7. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik va manfaatlar to'qnashuvi haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan xodimlar quyidagi asoslardan biri mavjud bo'lganda bir martalik pul mukofoti bilan rag'batlantiriladi:

fuqarolar yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxslar tomonidan xodimlarga nisbatan pora taklif qilgan shaxs haqida xabar berishi natijasida bunday huquqbuzarlik fosh etilishi (ma'muriy javobgarlikka tortish haqida vakolatli organ qarori va jinoyat ishini qo'zg'atish qarori yoki jinoyat ishi qo'zg'atilganligi haqida huquqni muhofaza qiluvchi organning ma'lumoti asosida);

xodimning o'ziga ma'lum bo'lgan boshqa xodimlarning korrupsiyaga oid huquqbuzarligi haqida xabar berishi natijasida bunday huquqbuzarlik fosh etilishi (ma'muriy javobgarlikka tortish haqida vakolatli organ qarori yoki jinoyat ishini qo'zg'atish qarori asosida);

boshqa xodimga oid manfaatlar to'qnashuvi yoki manfaatlar to'qnashuvi bo'yicha chora ko'rmagan rahbar haqida xabar berishi natijasida manfaatlar to'qnashuvining bartaraf etilishi yoki boshqacha tarzda boshqarilishi (Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplaens bo'limining ma'lumotnomasi asosida).

8. Korruptsiyaga oid huquqbuzarlik va manfaatlar to‘qnashuvi haqida xabar bergan yoki korruptsiyaga qarshi kurashishda boshqacha tarzda ko‘maklashgan xodimlar Davlat aktivlari agentligining Odob-axloq komissiyasi taqdimnomasi asosida quyidagi miqdordagi bir martalik pul mukofoti bilan rag‘batlantiriladi:

- korruptsiyaga oid ma‘muriy huquqbuzarliklar haqida berilgan xabar uchun - **bazaviy hisoblash miqdorining yigirma baravarigacha;**

- korruptsiyaga oid jinoyatlar haqida berilgan xabar uchun – **bazaviy hisoblash miqdorining o‘ttiz baravarigacha;**

- xodim korruptsiyaga qarshi kurashishda boshqacha tarzda ko‘maklashganligi (shu jumladan, **boshqa xodimga oid manfaatlar to‘qnashuvi yoki manfaatlar to‘qnashuvi bo‘yicha chora ko‘rmagan rahbar** haqida xabar berganligi) uchun - **bazaviy hisoblash miqdorining o‘n besh baravarigacha.**

Rag‘batlantirishning yakuniy miqdori Davlat aktivlari agentligi direktori tomonidan belgilanadi.

9. Xodim korruptsiyaga qarshi kurashishda boshqacha tarzda ko‘maklashganligi (shu jumladan, **boshqa xodimga oid manfaatlar to‘qnashuvi yoki manfaatlar to‘qnashuvi bo‘yicha chora ko‘rmagan rahbar** haqida xabar berganligi) uchun **tashakkurnoma** yoki **esdalik sovg‘a** shaklida rag‘batlantirish tarzida taqdirlanishi ham mumkin.

Esdalik sovg‘a qiymati bazaviy hisoblash miqdorining to‘rt baravaridan oshmasligi lozim.

10. Korruptsiyaga oid ma‘muriy huquqbuzarlik, jinoyat, **boshqa xodimga oid manfaatlar to‘qnashuvi yoki manfaatlar to‘qnashuvi bo‘yicha chora ko‘rmagan rahbar** haqida xabar bir-biridan mustaqil ravishda bir nechta xodim tomonidan taqdim etilsa, ular mazkur Nizomning 10-bandida ko‘rsatilgan eng yuqori miqdorga rioya qilgan holda teng miqdorlarda rag‘batlantiriladi.

11. Xodim korruptsiyaga qarshi kurashishga munosib hissa qo‘shganligi uchun qonunchilik hujjatlariga muvofiq davlat mukofotiga ham tavsiya etilishi mumkin.

12. Quyidagi qarorlardan biri qabul qilingandan so‘ng rag‘batlantirish masalasi ko‘rib chiqiladi:

korruptsiyaga oid ma‘muriy huquqbuzarliklar bo‘yicha sud yoki boshqa vakolatli organing qarori qabul qilinganda;

korruptsiyaga oid huquqbuzarliklar bo‘yicha jinoyat ishlari qo‘zg‘atilganda; **boshqa xodimga oid manfaatlar to‘qnashuvi yoki manfaatlar to‘qnashuvi bo‘yicha chora ko‘rmagan rahbar** haqida haqidagi xabar tasdig‘ini topib, ushbu masala Odob-axloq komissiyasi yig‘ilishida ko‘rib chiqilganda;

Davlat aktivlari agentligining “Korruptsiyaga qarshi kurashish siyosati”, “Odob-axloq qoidalari”, “Manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish to‘g‘risida nizom” kabi ichki idoraviy hujjatlar va sohaga oid qonunchilik talablari xodimlar tomonidan buzilganligi bo‘yicha o‘tkaziladigan xizmat tekshiruvi xulosasi Davlat aktivlari agentligi direktori tomonidan ma‘qullanganda.

13. Ushbu nizom doirasida xodimlarni rag‘batlantirish bilan bog‘liq xarajatlar Davlat aktivlari agentligi yoki uning tizimidagi tashkilotlarning budjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi.

3-bob. Korruptsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korruptsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan xodimlarni rag'batlantirish masalasini ko'rib chiqish tartibi

14. Korruptsiyaga oid huquqbuzarlik va manfaatlar to'qnashuvi haqida xabar bergan yoki korruptsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan xodimlarni rag'batlantirish masalasi Davlat aktivlari agentligining Odob-axloq komissiyasi tomonidan ko'rib chiqiladi.

15. Mazkur Nizom doirasida Odob-axloq komissiyasining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

xodimlarning korruptsiyaga qarshi kurashishdagi faolligini yanada oshirish hamda ularni ushbu sohaga qo'shayotgan hissasi uchun munosib rag'batlantirish;

qonunbuzarliklar haqida vijdonan xabar bergan xodimlarga nisbatan ishdan bo'shatish, lavozimdan tushirish, kamsitish, ta'qib qilish kabi tazyiqlarga yo'l qo'ymaslik va taqdim etilgan ma'lumotlar boshqa xodimlarga yoki uchinchi shaxslarga ularning rozilgisiz oshkor qilinmasligini nazorat qilish;

tizimda korruptsiyaning barcha ko'rinishlariga murosasiz munosabatni shakllantirish hamda ushbu sohada davlat siyosatining samarali amalga oshirilishi bo'yicha takliflar ishlab chiqish.

16. Korruptsiyaga oid huquqbuzarlik va manfaatlar to'qnashuvi haqida xabar bergan yoki korruptsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan xodimni rag'batlantirishga asoslar mavjud bo'lganda Korruptsiyaga qarshi kurashish va komplains bo'limi xodimni rag'batlantirish masalasini ko'rib chiqish uchun asoslovchi ma'lumotlarni Odob-axloq komissiyasiga kiritadi.

17. Odob-axloq komissiyasi xodimni rag'batlantirish masalasini ko'rib chiqib, yetarli asoslar mavjud deb xulosaga kelsa, Davlat aktivlari agentligi direktoriga xodimni rag'batlantirish bo'yicha taqdimnoma kiritadi.

Bunda rag'batlantirishga asos yuzaga kelgan vaqtda xodim Davlat aktivlari agentligi tizimida ishlamasa, uni rag'batlantirish masalasi ko'rib chiqilmaydi.

18. Taqdimnomaga rag'batlantirish uchun asos bo'luvchi quyidagi hujjatlar ilova qilinadi:

xodimning ro'yxatdan o'tgan arizasi nusxasi yoki og'zaki berilgan xabarni tasdiqlovchi ma'lumotlar;

korruptsiyaga oid ma'muriy huquqbuzarliklar bo'yicha sud yoki boshqa vakolatli organning qarori nusxasi;

korruptsiyaga oid huquqbuzarliklar bo'yicha jinoyat ishlari qo'zg'atish qarori nusxasi yoki jinoyat ishi qo'zg'atilganligi haqida huquqni muhofaza qiluvchi organning ma'lumoti;

boshqa xodimga oid manfaatlar to'qnashuvi yoki manfaatlar to'qnashuvi bo'yicha chora ko'rmagan rahbar haqida haqidagi xabar tasdig'ini topganligini asoslovchi hujjatlari nusxasi;

Davlat aktivlari agentligining "Korruptsiyaga qarshi kurashish siyosati", "Odob-axloq qoidalari", "Manfaatlar to'nashuvini boshqarish to'g'risida nizom"

kabi ichki idoraviy hujjatlar va sohaga oid qonunchilik talablari xodimlar tomonidan buzilganligi bo'yicha o'tkaziladigan xizmat tekshiruvi xulosasi Davlat aktivlari agentligi direktori tomonidan ma'qullanganligi tasdiqlovchi hujjatlar.

19. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik va manfaatlar to'qnashuvi haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan xodimni rag'batlantirish Davlat aktivlari agentligi direktorining buyrug'iga muvofiq amalga oshiriladi.

20. Odob-axloq komissiyasi a'zolari xodimni rag'batlantirish haqida komissiya qarori qonuniyligi, xolisligi hamda xodimlarning shaxsiga oid ma'lumotlar oshkor etilmasligi uchun shaxsan javobgar hisoblanadi.

4-bob. Yakunlovchi qoidalar

21. Mazkur Nizom asosida rag'batlantirilgan xodimlarning reyestri (Nizomga ilova) Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplaens bo'limi tomonidan yuritiladi.

22. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik va manfaatlar to'qnashuvi haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan xodimlarni rag'batlantirish bilan bog'liq nizolar qonunchilikda belgilangan tartibda hal etiladi.

23. Ushbu Nizom talablari buzilganligida aybdor bo'lgan xodimlar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradilar.

O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini
boshqarish agentligida korrupsiyaga oid
huquqbuzarlik va manfaatlar to'qnashuvi haqida
xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi
kurashishda boshqacha tarzda ko'maklashgan
xodimlarni rag'batlantirish tartibi to'g'risidagi
nizomga ilova

**Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik va manfaatlar to'qnashuvi haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi
kurashishda boshqacha tarzda ko'maklashganligi uchun rag'batlantirilgan xodimlar
REYESTRI**

so'mda

T/r	Xodimning F.I.Sh	JSHSHIR	Tarkibiy bo'linma nomi va lavozimi	Rag'batlan- tirishga asos	Odob-axloq komissiyasi yig'ilishi bayonnomasi raqami va sanasi	Rag'batlantiris h haqida buyruq raqami va sanasi	Rag'batlantirish turi (pul mukofoti, tashakkurnoma, esdalik sovg'a)	Rag'batlan- tirish miqdori